



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
AGROBIOTEXNOLOGIYALAR VA OZIQ-
OVQAT XAVFSIZLIGI INSTITUTI



Ro'yxatga olindi:
№ BD-60810500
2024-yil "10" oy

O'SIMLIKSHUNOSLIK VA PAXTACHILIK

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	800 000 – Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya
Ta'lim sohasi:	810 000 – Qishloq xo'jaligi
Ta'lim yo'nalishi:	60810500 – O'simliklar himoyasi va karantini

Fan /modul kodi O'SHP1306	O'quv yili 2025-2026	Semestr III	YESTS – kreditlar 6 ta
Fan /modul turi Majburiy	Haftasiga dars soatlari 6 soat		
Fan nomi	Auditoriya mas'g'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama soat
O'simlikshunoslik va paxtachilik	82	98	180

FANNING MAZMUNI (FM)

Fanni o'qitishdan maqsad - Fanni o'qitishdan maqsad - O'simlikshunoslik va paxtachilikga oid zamonaviy bilimlarni, sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida o'simlikshunoslik va paxtachilikning umumiy masalalari, turli qishloq xo'jaligi ekinlarining sistematikasi, morfologiyami, biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni egallash o'simliklarni tashqi muhim omillariga qarab ekish, parvarishlash tadbirlarini o'rganish hamda ularni amaliyotda tadbir etish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat.

FM1

Fanning vazifalari: talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, o'simlikshunoslik va paxtachilikning ilmiy asoslarini, sug'oriladigan dehqonchilikning umumiy masalalari, yerga ishlov berish jarayonlari uchun zarur bo'lgan uslubiy yondashuvlarni egallashga ko'maklashish, o'simlikshunoslik va paxtachilikning ilmiy asoslari kabi dolzarb masalalarni o'chib berish, qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni hosil qilishdan iborat.

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mas'g'ulotlari) II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:	
Mas'g'ulotlar shakli: ma'ruza (M)	
M1	1-Mavzu. O'simlikshunoslik fanining maqsadi va vazifalari, dala ekinlarining umumiy tavsifi va guruhlar.
	O'simlikshunoslik fanining maqsadi va vazifalari, dala ekinlarining umumiy tavsifi va guruhi O'zbekistonda o'simlikshunoslikning hozirgi davridagi holati. O'simlikshunoslik fanining rivojlanish bosqichlari. O'simlikshunoslik fanini rivojlantirishda olimlarning roli.
M2	2-Mavzu. Donli ekinlarning umumiy tavsifi. Kuzgi don ekinlari biologiyasi. Kuzgi bug'doy, kuzgi arpa biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
	Donli ekinlarning morfologik organlari, ularning tuzilishi, o'simlik hayoti va o'sib rivojlanishi hamda hosildorligiga ta'siri. Bug'doy - ahamiyati, tarqalishi, tarixi, ekin maydoni, hosildorligi, biologiyasi va navlari. Bug'doy yetishtirish texnologiyasi - o'tmishdosh, yerni asosiy ishlash, o'g'itish tizimi, ekish muddati, ekish uslubi, me'yori, chuqurligi. Ekinlarni parvarish qilish, sug'orish, begona o't va zararkunandalarga qarshi kurashish. Hosilni yig'ishtirish uslubi: muddati, kombaynlar, donni tozalash va saqlash.
M3	3-Mavzu. Bahorgi va ikkinchi guruh tarixiydon don ekinlari biologiyasi, navlari tavsifi va yetishtirish texnologiyasi
	Makkajo'xori, jo'xori va sholining ahamiyati, - kelib chiqishi, tarixi, tarqalishi, hosildorligi. Biologik xususiyatlari, navlari va duragaylari, rivojlanish davrlari. Don va silos tayyorlash uchun yetishtirish texnologiyasi - o'tmishdosh, yerni asosiy ishlash,

	o'g'itish tizimi, ekish muddati, ekish uslubi, me'yori, chuqurligi. Ekinlarni parvarish qilish, sug'orish, begona o't va zararkunandalarga qarshi kurashish. Hosilni yig'ishtirish uslubi: muddati, kombaynlar, donni tozalash va saqlash.
M4	4-Mavzu. Don-dukkakli ekinlar. No'xat biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi Don-dukkakli ekinlarning ahamiyati, botanik tavsifi, biologik xususiyatlari, oziq elementlarga talabi, kimyoviy tarkibi. Biologik azot to'g'risida tushuncha va ahamiyati. Biologik azot to'plashning muammolari. No'xat - ahamiyati, kelib chiqishi, ekin maydoni, hosildorligi. Biologik xususiyatlari va navlari. No'xat yetishtirish texnologiyasi - o'tmishdosh, yerni asosiy ishlash, o'g'itish tizimi, ekish muddati, ekish uslubi, me'yori, chuqurligi. Ekinlarni parvarish qilish, sug'orish, begona o't va zararkunandalarga qarshi kurashish. Hosilni yig'ishtirish uslubi: muddati, kombaynlar, donni tozalash va saqlash.
M5	5-Mavzu. Qo'ng'irboshli va dukkakli yem-xashak ekinlari biologiyasi va yetishtirish agroteknologiyasi Qo'ng'irboshli yem-xashak o'qlarining ahamiyati, ko'p yillik va bir yillik o'qlar tarkibi, to'yimligi. Mastak - ahamiyati, tarqalishi, hosildorligi, biologik xususiyati. Sug'oriladigan yerlarda yetishtirish texnologiyasi. Ekinni parvarish qilish. Hosilni yig'ish. Dukkakli yem-xashak o'qlarining umumiy tavsifi, to'yimligi, tuproq unumdorligini oshirishdagi o'rni, guruh tarkibi. Beda - ahamiyati, o'zluqlarning to'yimligi, agroteknik ahamiyati, kelib chiqishi, ekin maydoni, urug' va pichan hosili. Sistematikasi, biologik xususiyati, navlari. Pichan va urug' yetishtirish texnologiyasi.
M6	6-Mavzu. Tugunakmevali ekinlarning ahamiyati. Kartoshka - biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi. Tugunakmevali ekinlar ahamiyati. Kartoshka - ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi, ekin maydoni, hosildorligi. Kartoshkaning aynishi. Yetishtirish agroteknikasi - o'tmishdosh, yerni asosiy ishlash, o'g'itish tizimi, ekish muddati, ekish uslubi, me'yori, chuqurligi. Ekinlarni parvarish qilish, sug'orish, begona o't va zararkunandalarga qarshi kurashish. Hosilni yig'ishtirish uslubi: muddati, kombaynlar.
M7	7-Mavzu. Ildizmevali ekinlarning ahamiyati. Ildizmevali ekinlar ahamiyati va tarkibi. Ekinlarni parvarish qilish, sug'orish, begona o't va zararkunandalarga qarshi kurashish. Hosilni yig'ishtirish uslubi: muddati, kombaynlar.
M8	8-Mavzu Qand lavlagi - biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi. Qand lavlagi ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi, ekin maydoni, hosildorligi. Biologiyasi va navlari. Qand lavlagi yetishtirish texnologiyasi - o'tmishdosh, yerni asosiy ishlash, o'g'itish tizimi, ekish muddati, ekish uslubi, me'yori, chuqurligi. Qand lavlagi urug'chiligi.
M9	9-Mavzu Moyli ekinlar tavsifi va ahamiyati.

	Moyli ekinlar - xalq xo'jaligidagi ahamiyati umumiy tavsifi, tarkibi, sifat ko'rsatkichlari, guruhlari. Ekinlarni parvarish qilish, sug'orish, begona o't va zararkundalarga qarshi kurashish. 10-Mavzu Kungaboqar - biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi. Kungaboqar - ahamiyati, tarqalishi, tarixi, hosildorligi, biologiyasi, navlari. Urug' va silos tayyorlash uchun yetishtirish texnologiyasi- o'tmishdosh, yerni asosiy ishlash, o'g'itlash tizimi, ekish muddati, ekish uslubini, me'yori, chuqurligi. Hosilni yig'ishtirish uslubini: muddati, kombaynlar, urug'ni tozalash va saqlash. 11-Mavzu Paxtachilikning tarixi va xalq xo'jaligidagi ahamiyati. Paxtachilik fan sifatida. Paxtachilikni boshqa fanlar bilan bog'liqligi, o'rni va kelajak istiqbollari. G'o'zani kelib chiqishi va uning geografik tarqalishi. Dunyo davlatlarida paxta yetishtirish - ekin maydonlari, yalpi hosili va hosildorligi. Respublikamizda paxta yetishtirish tarixi va istiqbollari. 12-Mavzu G'o'za morfologiyasi G'o'zaning ildiz sistemasi tuzilishi. Poya. Bosh poya va uning o'sishi. Poyaning yotib qolish sabablari. Bargning tuzilishi va ahamiyati. O'suv (monopodial) va hosil shoxlari (simpodial) ularning tuzilishidagi bir bittan farqlari, g'o'zani shoxlanish tiplari, monopodial, simpodial va oraliq tiplardagi shoxlanishlar. Simpodial shoxlarning tiplari va kenja tiplarining tuzilishi. G'o'za gulining tuzilishi va gullash qonuniyati. Ko'sakning tuzilishi va g'o'za tupida hosil organlarining to'kilish qonuniyati. Chigit va uning tuzilishi. Tolani paydo bo'lishi va rivojlanishi. 13-Mavzu: G'o'za biologiyasi va rivojlanish fazalari. G'o'zani tuproqqa, haroratga, suvga, oziq moddalarga va yorug'likka bo'lgan talabi. G'o'zaning o'sib rivojlanishi uchun talab etilgan quyi, qulay va yuqori haroratlar, foydali harorat yig'indisi. G'o'zaning rivojlanishi davrida oziq moddalarga bo'lgan talabi. Asosiy va oraliq rivojlanish fazalari va ularning o'tish muddatlari, dastlabki hosil shoxining paydo bo'lish balandligining amaliy jihatdan ahamiyati. 14-Mavzu: G'o'zaning tashqi muhit sharoitlariga bo'lgan talabi. G'o'zaning o'sib rivojlanishi uchun talab etilgan quyi, qulay va yuqori haroratlar, foydali harorat yig'indisi. G'o'zaning rivojlanishi davrida oziq moddalarga bo'lgan talabi. Asosiy va oraliq rivojlanish fazalari va ularning o'tish muddatlari, dastlabki hosil shoxining paydo bo'lish balandligining amaliy jihatdan ahamiyati. 15- G'o'za navlarini intensiv texnologiyalar asosida yetishtirish agroteknologiyasi Asosiy rayonlashirilgan o'rta va ingichka to'la g'o'za navlari tavsifi. To'qimachilik sanoatining navlarga qo'ygan talablari. G'o'zapoyalarni yig'ishtirib olish. Begona o'tlarga qarshi kurashish, dalani tekislash, yetilarning sho'rini yuvish va yaxob suvi berish. Yerni xaydash oldidan mahalliy va mineral o'g'itlar berish, kuzgi shudgorlash. Yerni erta ko'klamda va ekish oldidan ishlash sistemasi. Tukli chigitni ekish oldidan namlash va dimlash. Chigit ekish texnologiyasi, ekish muddatlari va me'yori.
M10	
M11	
M12	
M13	
M14	
M15	

	Respublikada hozirgi davrgacha qo'llanilgan chigit ekish usullari. Chigitni erta va to'liq undirib olish tadbirlari. G'o'za qator oralarini ishlash muddatlari, kengligi va chuqurligi. Himoya zonasi kengligi, g'o'zani o'toq qilish va ketmon chopig'i. Kultivatsiya ishchi qismlarini o'rnatish sxemalari. Egat olish va o'g'it berish texnikasi. Paxta dalalarida begona o'tlarga qarshi kurash choralar. G'o'zani turli davrlarda suvga bo'lgan talabi, sug'orish manbalari. Mineral o'g'itlar (azotli, fosforli, kaliyli, murakkab o'g'itlar). Mikro o'g'itlar, mahalliy o'g'itlar, ko'kat o'g'itlar, bakterial o'g'itlardan foydalanish). III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: Amaliy (A) Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.
A1	Don ekinlarining umumiy tavsifi
A2	Bug'doy turlari, morfologiyasi, biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
A3	Bug'doy turlari, morfologiyasi, biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
A4	Arpaning turlari, morfologiyasi, biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi.
A5	Makkajo'xori kenja turlari va morfologiyasi, biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
A6	Makkajo'xori kenja turlari va morfologiyasi, biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
A7	Sholi morfologik xususiyati biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
A8	Sholi morfologik xususiyati biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
A9	Don-dukkakli ekinlarning umumiy morfologik xususiyati
A10	Don-dukkakli ekinlarning umumiy morfologik xususiyati
A11	Soya - sistematikasi, morfologiyasi, biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
A12	Kartoshka sistematikasi, morfologiyasi, biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
A13	Kartoshka sistematikasi, morfologiyasi, biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
A14	Qand lavlagi morfologiyasi, biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
A15	Moyli ekinlar guruhlari.
A16	Kungaboqar morfologiyasi, biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
A17	Tanaki va maxorkaning morfologiyasi, biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
A18	G'o'zaning ildiz, poya, barg va shoxlarining tuzilishi
A19	G'o'zaning gul, ko'sak, chigit va tolasining tuzilishi
A20	G'o'zada gullash va hosil elementlarining to'kilish qonuniyatlarini
A21	G'o'zada gullash va hosil elementlarining to'kilish qonuniyatlarini
A22	Turli ekish sxemalariga ko'ra chigit ekish me'yorini hisoblash
A23	Turli tuproq iqlim sharoitlari uchun g'o'zaning o'g'itlash me'yorini hisoblash
A24	Turli tuproq iqlim sharoitlari uchun g'o'zaning sug'orish me'yorini hisoblash va sug'orishning gidramodul grafignini tuzish

A25	Turli tuproq iqlim sharoitlari uchun g'o'zaning sug'orish me'yorlarini hisoblash va sug'orishning gidromodul grafigini tuzish
A26	G'o'zada nazariy va haqiqiy kuchat qalinligini hisoblash va hosilni chamlash

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"O'SIMLIKSHUNOSLIK VA PAXTACHILIK" fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarining kalendari tematik reja

Mustaqil ta'lim mavzulari	
1.	Respublikamizda davlat reystriga kiritilib ekinlik kelinayotgan kuzgi bug'doy navlari tavsifi.
2.	Respublikamiz dehqonchiligi sharoitida qattiq bug'doy yetishtirish agrotexnologiyasi
3.	Qishloq xo'jaligi ekinlari ekish me'yorlarini hisoblash
4.	Yasmiq morfologiyasi biologiyasi hamda yetishtirish agrotexnologiyasi
5.	Burehoq morfologiyasi biologiyasi hamda yetishtirish agrotexnologiyasi
6.	Mosh morfologiyasi, biologiyasi hamda yetishtirish agrotexnologiyasi
7.	Tapinambur va batat umumiy morfologik belgilari, biologiyasi hamda yetishtirish agrotexnologiyasi
8.	Kunjut va kanakunjut umumiy morfologik belgilari, biologiyasi hamda yetishtirish agrotexnologiyasi
9.	Maxsar umumiy morfologik belgilari, biologiyasi hamda yetishtirish agrotexnologiyasi
10.	Yeryong'oq morfologik belgilari, biologiyasi hamda yetishtirish agrotexnologiyasi
11.	Raps morfologik belgilari, biologiyasi hamda yetishtirish agrotexnologiyasi
12.	Efermoyni ekinlar yetishtirish texnologiyasi
13.	G'o'za sestimatikasi
14.	Paxtachilikda nav almashinishi.
15.	Davlat reystriga kiritilgan g'o'za navlarining tavsifi
16.	Turli tuproq iqlim sharoitlari uchun chigit ekishning maqbul muddat va me'yorlarini ishlab chiqish.
17.	Chigitni ekish usullari hamda g'o'zani kultivatsiya qilish Raps biologiyasi hamda yetishtirish agrotexnologiyasi
18.	Raps biologiyasi hamda yetishtirish agrotexnologiyasi

"O'SIMLIKSHUNOSLIK VA PAXTACHILIK" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish nazarda tutilgan. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan mavzularni normativ-huquqiy hujjatlar va o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish, ilmiy maqola, tezislarni tayyorlash, amaliyotdagi mavjud muammolarni yechimni topish, fanning dolzarb muammolarini qamrab oluvchi loyihalar tayyorlash, o'rganilayotgan mavzu bo'yicha asosiy ilmiy adabiyotlarga annotatsiya yozish kabi ko'rinishdagi ishlarni bajarish tavsiya etiladi. Keltirilgan mavzularning har

biri to'g'risida talabalar quy tarzda o'zlashtirish, bilim va ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3	VI. Fanni o'zlashtirishning natijasida (shakllangan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: qishloq xo'jalik ekinlarini kelib chiqish markazlari, ularning sistematikasi morfologik xususiyatlari, biologik xususiyatlari hamda qishloq xo'jaligi ekinlarini dunyoda va respublikamizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rini; -qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish parvarishlash va yetishtirish texnologiyalarini bilishi va ularidan foydalanish; -talaba yerga ishlov berish va ekinlarni ekishni sifati o'tkazishi; -sug'oriladigan yerlarning shorlanishi va botqoqlanishi, o'g'adigan ekinlarni tanlab ekish va ularidan mo'l va sifati hosil olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. - Ushbu fan o'simlikshunoslik va paxtachilikning ilmiy asoslari va asosiy qonunlari, yetakchi olimlarining o'simlikshunoslik faniga qo'shgan hissalarini, do'simlikshunoslikda ilg'or va innovatsion texnologiyalarni qo'llanishi, ularning O'zbekiston dehqonchiligidagi ahamiyati kabi o'ta dolzarb masalalarni qamrab oladi. Tuproqning suv, havo, issiqlik, oziq rejimlari va ularni boshqarish usullari, begona o'larga kurash choralarini, yerga ishlov berishning zamonaviy usullarini haqidagi bilimlar bilan boyitadi.
4	VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari • Ma'ruzalar, • Interfaol keys-stadilar, • Seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • Guruhlarda ishlash; • Taqdimotlarni qilish; • Individual loyihalar; • Jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar, • Ko'chma dars mashg'ulotlari.
5.	VIII. Kreditlarni olish uchun talabalar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oralik nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ismni topshirish.

6. ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Abduraximov M.K. O'simlikshunoslik. Darslik. Samarqand 2021
2. Atabayeva X.N., Xudayqulov J.B. O'simlikshunoslik. "Fan va texnologiya" nashriyoti, Toshkent- 2018 y. Darslik. 25.5 b.t. 407-b.
3. Atabayeva X.N., Umarova N.S. Rasteniyevodstvo. Uchebnik. TashGAU, Tashkent-2016. 380 s.
4. Atabayeva X.H., Qodirov Javev O. O'simlikshunoslik. Toshkent Yangi asr avlodi, darslik, 2006 (180 bet).
5. Atabayeva X.N., Umarov Z. O'simlikshunoslik-praktikum, o'quv qo'llama, T. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004 (160 bet).
6. Muxammadjonov M. Zokirov Z. «G'o'za agrotexnikasi» o'quv qo'llama Toshkent 1995. (286 b).
7. Oripov R., Xalilov N. O'simlikshunoslik. Uslubiy qo'llama. Samarqand 2008 y., 420 b.
8. Teshayev Sh., Sulaymonov B. Paxtachilik ma'lumotnomasi. "Fan va texnologiya" nashriyoti, Toshkent 2016. 540 b.

9. R.Oripov, A.Sanaqulov, I.Islomov Paxtachilikdan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari. Toshkent 2010

10. Teshayev Sh., Xoliqov B. va hammualiflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasi viloyatlarida ekilayotgan g'oz naqlarini yetishtirish agrotexnologiyasi (har bir viloyatlar uchun alohida tavsiyanomalar chop etilgan). Toshkent 2016; 2017; 2018 yil.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 56 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 47 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijonab xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 485 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 103 b.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-moddasi

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1-iyundagi "2017 yilda boshqoqliq don ekinlaridan bo'shaydigan maydonlarga takroriy ekinlarni joylashtirish, ekish uchun talab etiladigan moddiy-texnika resurslarini o'z muddatida yetkazib berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PK-3027-sonli Qarori.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi xodimlari kuni" bayram tadbirida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda, qishloq xo'jaligining mavjud inqoniyatlaridan yanada samarali foydalanish, sohasida iqtisodiy isloxtatarni yanada chuqurlashtirish, ilm-fan yutuqlari va innovatsion yangiliklarni tizimli joriy etish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3432-sonli Qarori

8. Umarov Z., Alabayeva X., Gumirov I.- Kornovayev travay Sredney Azi. T. 1990. O'quv qo'llanma 45 bet.

9. Alabayeva X. Dala ekinlarini qo'shib ekish.O'quv qo'llanma, T. 1989, 55 b.

10. O'zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya qishloq xo'jalik ekinlari «Davlat Reyestri» Toshkent 2019 y.

11. A.Razzokov Uzbekiston paxtachiligi tarixi. Toshkent
O'zbekiston qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan chop etilgan paxta yetishtirish va hosilni yig'ishtirib olish bo'yicha texnologik karta. T. 2022 y

AXBOROT MANBAALARI

18. www.gov.uz- Uzbekiston Respublikasi xukumat portali.

19. www.lex.uz - Uzbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

20. www.zoonet.uz

21. www.agrar.uz

22. www.kitoblar.uz

23. www.kutubxona.uz

24. www.booksee.org

25. www.soil science

26. www. soil mapping

7. Fan dasturi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil "24" avgustdagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.

8. Fan/modul uchun mas'ullar.

J.Q.Abdumalikov - Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, "Tuproqshunoslik va agrotexnologiyalar" kafedrasi assistenti qishloq xo'jaligi fanlari falsafa doktori (PhD)
Taqrirlashchilar: T.Q.Oritqov - Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Tuproqshunoslik va agrotexnologiyalar kafedrasi dotsenti. Agroinovatsiyalar va tadqiqotlar instituti, qishloq xo'jaligi fanlari doktori P.X.Bobomirzayev.

Universitetning 2024-yil 16-avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais - Sh.T.Xoliqulov.

Kafedra mudiri:

Institut o'quv uslubiy kengash raisi:

Institut direktori:

Sh. Rashidov nomidagi SamDU O'quv ishlari bo'yicha I-prorektor:

Sh.T.Xoliqulov
Sh. Mamasov
T.F. Rajabov
A.S. Soleyev

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti 60810500-O'simliklar himoyasi va karantini ta'lim yo'nalishlari talabalar uchun O'simlikshunoslik va paxtachilik fanidan tayyorlangan fan dasturi va sillabusiga

TAQRIZ

Yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda, fan bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda fan dasturi va sillabuslarini tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Chunki fan dasturi va sillabuslari o'tiladigan fanlarning o'qitilish shakli va mavzularini ketma-ketligini tartibga solib turuvchi asosiy hujjatlardan biri bo'lib hisoblanadi.

60810500 – O'simliklar himoyasi va karantini ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabalar uchun O'simlikshunoslik va paxtachilik fanini 3 semestrdagi rejalashtirilgan bo'lib, unda ma'ruza amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari fan dasturi asosida tuzilgan, mavzular ketma-ketligi bir-birini to'ldirib, fanning barcha bo'limlarini qamrab olgan. Mustaqil ta'lim mavzulariga alohida e'tibor berib tuzilgan. Unda talabalar mustaqil ta'lim mavzularini bajarishlari fanning bo'limlaridagi mavzular bo'yicha topshiriqlarni bajarishi orqali bilm va ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Fan dasturi va sillabusni tuzishda muallif fanning maqsadi, vazifasi, fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar, ta'lim natijalarini ko'rsatish orqali tuzilgan. Shuningdek fanni baholashda kredit mezonini va tartibi, darsdagi faolligi, mustaqil ta'lim topshiriqlari, bajarish bosqichlari ularga ajratilgan ballari keltirilgan. Bundan tashqari fan dasturi va sillabusida keltirilgan abadiyotlar o'zining fan mavzulariga yaqinligi, fanning ma'ruza amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'rganishda foydalanish uchun zarurligini alohida ta'kidlash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, 60810500 – O'simliklar himoyasi va karantini ta'lim yo'nalishi uchun O'simlikshunoslik va paxtachilik fanidan tuzilgan ushbu fan dasturi va sillabus oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan qo'yilgan talablarga to'liq javob beradi va uni foydalanishlari uchun tavsiya etaman.



P.X. Bobomirzayev

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti 60810500 – O'simliklar himoyasi va karantini ta'lim yo'nalishi talabalar uchun O'simlikshunoslik va paxtachilik fanidan tayyorlangan fan dasturi va sillabusiga

TAQRIZ

Fan dasturi va sillabusida talabalar O'simlikshunoslik va paxtachilik fani bo'yicha bilim va malakalarini egallashi, ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan mavzular qamrab olingan. Fan dasturi va sillabusida O'simlikshunoslik va paxtachilik fanining ilmiy asoslarini, rivojlanish tarixini, tuproqlarning xossalari, begona o'tlarning ta'rifi va ularga qarshi kurash tadbirlari yerga ishlov berish, qishloq xo'jalik ekinlarini ekish, madaniy ekinlarning xalq xo'jaligidagi ahamiyati va ularni rayonlashtirishni, biologik xususiyatlarini; etishtirish va yig'ib-terib olish usullarini, istiqbolli turlari va navlarini; agrotexnikasi va ekish texnologiyasini o'rganish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat deb maqsad qo'yilgan.

Talaba ushbu fanni o'qishi davomida madaniy o'simliklar uchun xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarni o'rganadi. Madaniy o'simliklarning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati, tarqalishi, ekin maydoni, tashqi muhitga talabi, morfologiyasi, biologiyasi, sistematikasi, yuqori hosilni ta'minlaydigan zamonaviy ilg'or agrotexnologiyalar tizimini o'rganib oladi.

60810500-O'simliklar himoyasi va karantini ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabalar uchun O'simlikshunoslik va paxtachilik fani 3-semestrlarda rejalashtirilgan bo'lib, unda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlari mavzulari fan dasturi asosida tuzilgan, mavzular ketma-ketligi bir-birini to'ldirib, fanning barcha bo'limlarini qamrab olgan. Mustaqil ta'lim mavzulariga alohida e'tibor berilgan bo'lib ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mavzularida keltirilgan mavzular mustaqil ta'lim mavzulariga kiritilmaganligi talabalarining mustaqil ta'limlarda o'zlarini mustaqil ravishda ishlaganiga qaratilgan.

Bundan tashqari fan dasturi va sillabusida keltirib o'tilgan adabiyotlarning ro'yxati o'zlarining tarkibi jihatdan sillabusda keltirilgan mavzularni ma'ruza va amaliy mashg'ulot hamda mustaqil ta'lim mavzularini o'zlashtirishda amaliy yordam beradi.

Umuman olganda fan dasturi va sillabus 60810500-O'simliklar himoyasi va karantini ta'lim yo'nalishi uchun O'simlikshunoslik va paxtachilik fanidan tuzilgan bo'lib, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan qo'yilgan barcha talablarga to'liq javob beradi va uni foydalanishlari uchun tavsiya etaman.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Tuproqshunoslik va agrotexnologiyalar kafedrasi dotsenti



T.O. Ortiqov